

## **ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI**

***G.Mirzaaxmedova***

*Farg'ona davlat universiteti tayanch doktornati*

***Annotatsiya:*** Maqolada tafakkur turlaridan analitik tafakkurning mazmun mohiyati yoritilib, talabalarda voqelikni analiz, sintez qilish, ma'lumotlar to'plash, umumlashtirish va yangi qirralarini topishga intilish, o'z qarashlarini dalillash kabi faoliyatga yo'llash ko'nikmasini shakllantirish zarurati ilmiy asoslangan.

***Tayanch so'zlar:*** tahlil va tarbiya jarayoni, metod, debatlar, metodik talablar, tahlil va tarbiya samaradorligi, baxs-munozara, mustaqil fikr.

***Аннотирование:*** В статье изложены содержание и методические требования к использованию метода «дискуссии» в процессе обучения и воспитания, в основе которого лежит значение метода в обеспечении эффективности образования.

***Ключевые слова:*** учебно-методический процесс, методика, дискуссия, методические требования, эффективность преподавания и обучения, дискуссия, самостоятельное мышление.

***Annotation:*** The article describes the content and methodological requirements for the use of the method of "debate" in the process of education and upbringing. It is based on the importance of the method in ensuring the effectiveness of education.

***Keywords:*** teaching and learning process, method, debates, methodological requirements, effectiveness of teaching and learning, debate, independent thinking.

Har bir inson o'ziga xos tarzda individual fikrlash xususiyatiga ega bo'lib, u xulq-atvorda, harakat strategiyasida, dunyoqarashda, sodir bo'layotgan narsaga va atrofdagi odamlarga munosabatda namoyon bo'ladi. Analitik tafakkur yordamida o'rganilayotgan ob'ektga turli tarafdin yondashish, uning ichki va tashqi aloqalarini kompleks holda

tekshirish imkoniyati hamda bir to'xtamga kelish taqazo etiladi. Analitik fikrlash – olingan ma'lumotlarni to'g'ri, aniq ketma-ketlikda taqdim etish qobiliyatidir.

Ana shunday fikrlash salohiyatiga ega odamlarni qadimgi Yunonistonda analitiklar deb nomlaganlar. “Falsafa. Qomusiy lug'at”da “analitika” atamasi tahlil qilish, muhokama, isbotlash san'ati sifatida izohlanadi. Analitika atamasi ilk bor Aristotel tomonidan mantiqiy tahlil texnikasiga berilgan nom sifatida qo'llangan. Uning “Analitika” nomli asarida fikrlashning bu yo'siniga taalluqli ikki jihat: murakkab butunlikka ega bo'lgan ob'ektni dastlab oddiy qismlarga ajratish va ularni tekshirish asnosida tafakkur yuritishning murakkablashib borishiga e'tibor qaratiladi. Nemis faylasufi Immanuel Kant analitikani insonning anglash qobiliyati deb atab, “Sof ong tanqidi” asarida birinchi bo'lib bilish jarayonini analitik va sintetik fikrlash singari ikki bosqichga ajratishni taklif etdi. Analitik falsafaning ramziy otasi G.Frege analitik falsafada til ilmiy tadqiqot olib borish va uning natijalarini ifodalash vositasigina emas, balki falsafiy taxlilning predmeti ham hisoblanadi, deb ta'kidlaydi. Analitik falsafa o'zga falsafiy uslublardan o'z g'oyalarini umumiy matn orqali emas, balki alohida gap orqali ifodalashiga ko'ra ajralib turadi. Faylasuf-analitik fikr va undagi gaplarning aniq ma'no tashishiga mantiqiy bog'lanishli bo'lishiga, aniqligiga jiddiy e'tibor qaratadi. Shuning uchun ham talabalar fikrlash salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikr kishisi qilib tarbiyalash qatorida nutqini o'stirish, tilni o'rgatish hamisha dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Oliy ta'limda talabalarni analitik faoliyatga yo'llash va bu faoliyatni rivojlantirishda mantiqiy, tanqidiy va analitik fikrlash malakasini shakllantirish shaxs sifatida rivojlanishlarining dinamik asoslarini tashkil etadi. Demak, talabalarni analitik faoliyatga yo'llashda o'ziga xos yondashuv, qarashni aniq, mantiqli, ifodali bayon etish hamda asoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Har bir odamning tafakkur darajasi ham bilimlar turfaligi natijasida analitik tafakkur o'ziga xos qarashlarni yuzaga chiqishiga imkon beradi. Shuning uchun ham XX asrning o'rtalaridan boshlab G'arb mamlakatlari pedagogik amaliyotida analitik tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratila boshlangan. Analitik tafakkur mantiqiy tafakkur xususiyatlarini ham qamrab olishi,

tafakkur sur'atining tezligi, masalaga turli jihatlardan yondashishni talab etishi, qamrovliligi, muammoning asoslangan yechimini topish singari jihatlari bilan ustuvorlik qiladi. Bunday tafakkur egasi masalaning asl mohiyatini anglash, uning sabab-oqibatlarini tushunish, kerakli qarorga kela bilish qobiliyatiga ham ega bo'ladi. Analitik tafakkur yangi axborot izlab topish, uni o'rganib, tizimga solish, taqqoslash, baholash, mantiqiy fikrlash, dalillarga tayanish, mavjud axborotlarga tanqidiy qaray olish, olingan ma'lumotlar asosida to'g'ri to'xtamga kelish imkonini beradi. Binobarin, taraqqiyotning hozirgi darajasi har qanday kasb egasidan o'xshatish, qiyoslash, qismlarga ajratish, umumlashtirish, tizimlash, modellashtirish, tasniflash, mo'ljal qilish orqali o'z faoliyatini rejalashtirishni talab qiladi. Sanab o'tilgan sifatlarning qaror topishi esa talabalarda yaxlit axborot madaniyati hamda zamonaviy, gumanistik dunyoqarashni shakllanishida asos vazifasini o'taydi.

Analitik tafakkur egasidan masalaning asl mohiyatini anglash, uning sabab-oqibatlarini tushunish, kerakli qarorga kela bilish qobiliyati bo'ladi. Shu bois bunday fikrlaydigan odamlar olam xodisalari va odamning hatti-xarakatlari yuzasidan xolis, atroflicha va haqqoniy xulosa chiqara oladilar. Analitik tafakkur yangi axborot izlab topish, uni o'rganish va tizimga solish, olingan ma'lumotlar asosida to'g'ri to'xtamga kelish imkonini beradi. Analitik tafakkur yuritishda:

- axborotni tanlash va yig'ish;
- axborotni muayyan qismlarga ajratish;
- ma'lumotlarni taqqoslab ular o'rtasidagi bog'liqlikni topish;
- axborotni xolis baholash;
- mantiqiy fikrlash;
- fikrni izchillik bilan to'g'ri bayon etish;
- fikrlayotganda faqat dalillarga tayanish;
- axborotlarni muhimini nomuhimidan ajrata bilish;
- mavjud axborotga tanqidiy qaray bilish;
- muqobil yechimlar bo'lishi mumkinligini hisobga olish;

-xulosa chiqarish kabi jarayonlar bajariladi.

Qay yo'nalishda ish olib borilsa, talabalarda analitik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish samara beradi?

1. Analitik tafakkurni shakllantirish bevosita talabalarning amaliy mutaxassislik faoliyatiga bog'lab fanlararo integratsiya asosida kasbiy amaliyotda ko'p uchraydigan muammolarni yechishga qaratilgan bo'lsa;

2. Bu jarayon samarali yakunlanishini kafolatlaydigan ilg'or tahlil metodlaridan, usul va vositalardan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali;

3. Kasbiy baxslar tashkil etish, analitik treninglar o'tkazish, ilmiy tadqiqot loyihalariga jalb etish ;

4. Talabalarning analitik fikrlash mexanizmini o'zlashtirishlari uchun pedagogik shart-sharoit yaratish, xilma-xil o'quv topshiriqlari va vaziyatli keyslardan unumli foydalanish.

Talabalar analitik faoliyatini rivojlantirish asosida o'z qobiliyatini baholash, yutuqlarini taxlil qilishga intilish, fanga doir kompetentlik darajasini oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa ta'lim natijalarini prognozlashga sharoit yaratadi.

Yuqorida berilgan ta'riflar, munosabatlarni umumlashtirib, analitik tafakkur tushunchasi belgilarini quyidagicha izohlash mumkin:

-analitik tafakkur fikrlashning mantiq bilan uzviy bog'langan, predmetni aniq, to'g'ri, ob'ektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turi, ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirishning mustahkam asosi;

-analitik tafakkur-ijtimoiy hayotning hamma sohalari bo'yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, o'tmishni anglash, bugunni idrok etish, kelajakni bashorat qilish, taraqqiyotning istiqbolli yo'llarini belgilash imkonini beradigan sarmahsul fikrlash yo'sini, ta'lim tizimida uzviylik, izchillikni tahminlashning muhim manbai;

-analitik tafakkur insonni innovatsion g'oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish, amaliyotga tatbiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzidir. Ta'lim jarayonida yoshlarni ijtimoiy faollashuvga tayyorlashning intensiv yo'li;

-ta'lim tizimida talabalarda analitik tafakkur qobiliyatini rivojlantirish – bu mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa oladigan, fikriy qaramlikdan yiroq barkamol avlodni tarbiyalash imkonini beradi. Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, o'rganilayotgan muammo yuzasidan aniq dalil bo'ladigan ko'p miqdordagi axborotlarni to'plab, masalaga turli tomondan yondashib, uning mayda jihatlarini ham nazardan qochirmagan holda mavjud dalillarni tahlil qilish orqali eng to'g'ri yechimni tez va aniq topishga qaratilgan aqliy jarayon analitik tafakkurdir deyish mumkin. Demak, analitik tafakkur egasi tahlil qilinayotgan ob'ektni har tomonlama sinchiklab o'rganadi, murakkab axborotlarni qismlarga ajratadi, har bir so'z ustida jiddiy fikr yuritadi, qismlarni o'zaro mantiqiy bog'laydi, maqbul xulosaga keladi va kerakli qarorlar qabul qiladi. Bunday qobiliyat egasi har qanday xodisa ustida fikr yuritganda narsa-xodisaning tashqi ma'nosini tahlil qilish bilan cheklanib qolmasdan uning ichki ma'no qatlamlarini ham aniqlashga urinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Petrovskiy A.V. va boshq. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi.-1992.
- 2.G'oziev E.Tafakkur psixologiyasi. T.: O'qituvchi.-1990.
- 3.Falsafa. Qomusiy lug'at.T.: SHarq.-2004
- 4.Elektron manba: [https://methodological\\_terms.academic.ru](https://methodological_terms.academic.ru) Folomkina.S.K. Analiticheskoe chtenie, 1987.
- 5.Elektron manba: <https://www.rebenok.com/info/library/psychology>
- 6.Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan.doktori dis.-T,:1995
- 7.Hasanov SH. Adabiy ta'lim jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Falsafa(PhD) dok. dis.-N,:2020